**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

XALILOVA NASIBA DJAMOLOVNA

OLIY TA’LIMDA KOLLABORATIV O‘QITISH ASOSIDA TALABALAR AKADEMIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (ingliz tili darslari misolida)

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

UO‘K: 378.147:811.111’276.6

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Xalilova Nasiba Djamolovna
Oliy ta’limda kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish (ingliz tili darslari misolida) 3

Khalilova Nasiba Djamolovna
Enhancing the methods of collaborative learning and its impact on students’ academic performance in higher education (in the context of English language teaching) 25

Халилова Насиба Джамоловна
Совершенствование методики организации академической деятельности студентов на основе коллаборативного обучения в высшем образовании (на примере уроков английского языка) 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 52

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

XALILOVA NASIBA DJAMOLOVNA

OLIY TA’LIMDA KOLLABORATIV O‘QITISH ASOSIDA TALABALAR AKADEMIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (ingliz tili darslari misolida)

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Ped11020 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda “Ziyonet.uz” axborot-ta‘lim portali – (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Visuanathan Gopalan** pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kurbanova Gulnoz Negmatovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Sadikov Erkin Tursunovich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 10-noyabr soat 09.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D/1081 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2026- yil 29-oktyabr kuni tarqatildi.

(2026 - yil 29-oktyabrdagi 23-raqamli reyestr bayonnomasi).

N.B. Ataboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Y.B. Ro‘ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.Sh. Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta’lim tizimi rivojlangan AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Singapur va Finlandiya kabi mamlakatlarning oliy ta’lim amaliyotida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishda kollaborativ o‘qitish yondashuvlaridan keng foydalanilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar oliy ta’lim amaliyotida talabaning o‘quv jarayonidagi ishtirokini faollashtirishga yo‘naltirilgan kollaborativ yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Bunday ta’limda talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni muloqot, hamkorlik va birgalikdagi faoliyat jarayonida shakllantiruvchi ishtirokchi sifatida qaraladi. Shuningdek, Collaborative Learning, Peer Instruction, Problem-Based Learning va Cooperative Learning kabi yondashuvlar asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda talabalar o‘zaro fikr almashadi, muammoli vaziyatlarni birgalikda tahlil qiladi va umumiy qaror ishlab chiqadi. Natijada, hamkorlikka asoslangan o‘quv faoliyatini modellashtirish, uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek, bunday tashkil etishning ta’lim natijalariga ta’sirini o‘rganish hozirgi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Dunyo fanida AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Niderlandiya va Janubiy Koreya oliy ta’lim muassasalarida talabalarni hamkorlikka jalb etish va ularning o‘quv jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi pedagogik yechimlar izlanmoqda. Mazkur tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga tatbiqi, talabalarning akademik faoliyatini monitoring qilish va baholash, shuningdek, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanib o‘quv faoliyatini tashkil etish masalalari alohida o‘rin tutmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’limda hamkorlikka asoslangan akademik faoliyatni tashkil etishning samarali modellari va texnologik yechimlarini ishlab chiqish, ularni real ta’lim sharoitlariga moslashtirish hamda amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan birini tashkil etmoqda.

Respublikamizda oliy ta’limni xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish bilan bir qatorda, ta’lim sifatini yuksaltirish va zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan islohotlar izchil davom etmoqda. Ushbu jarayonda talabaning o‘quv faoliyatidagi ishtiroki, mustaqil izlanishi va jamoa bilan ishlashi alohida ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy fikrlash, samarali muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy hamda huquqiy shart-sharoitlar ham bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablar talabaning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, o‘zlashtirilgan bilimlardan tahliliy va ijodiy faoliyatda foydalanish, muammoli vaziyatlarni birgalikda hal etish hamda bu jarayonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalarini ham qamrab oladi. Mazkur talablar oliy ta’lim jarayonida hamkorlikka asoslangan faoliyatni tashkil etish va talabalar akademik faoliyatini samarali boshqarishning metodik yechimlarini izlashni taqozo etadi. Shu jihatdan, kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish oliy ta’lim pedagogikasida muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida, shuningdek, oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish, talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etishga qaratilgan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakillantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kollaborativ o‘qitishning nazariy-metodologik asoslari, hamkorlikka asoslangan ta’limni tashkil etish hamda talabalar akademik faoliyatini rivojlantirish masalalari xorijlik olimlardan D.V. Jonson,
R.T. Jonson, R.E. Slavin, P. Dillenbourg, K.A. Bruffee, Y.S. Lee, A. Bach, E.F. Barkley, J. Dewey, J. Piagetlarlarning[1] ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

MDH davlatlarida kollaborativ o‘qitishni tashkil etish, talabalar akademik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha rus olimlaridan L.S. Vygotsky, V.V. Davidov,
G.K. Selevko, I.P. Volkov, A.G. Asmolovlar izlanish olib borishgan. Jumladan,

[1] Johnson D.W., Johnson R.T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. – Boston: Allyn & Bacon, 2014 (reprint). – 320 p.; Slavin R.E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. – Boston: Allyn & Bacon, 2015 (2nd ed.). – 272 p.; Dillenbourg P. Collaborative Learning: Cognitive and Computational Approaches. – Oxford: Elsevier, 2013 (reprint). – 256 p.; Bruffee K.A. Collaborative Learning: Higher Education, Interdependence, and the Authority of Knowledge. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2015 (reprint). – 240 p.; Lee Y.S. Collaborative Learning in Higher Education. – New York: Routledge, 2014. – 198 p.; Bach A. Designing Collaborative Learning Environments. – London: Routledge, 2016. – 210 p.; Barkley E.F. Collaborative Learning Techniques: A Handbook for College Faculty. – San Francisco: Jossey-Bass, 2014 (2nd ed.). – 336 p.; Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 2004 (reprint). – 434 p.; Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001 (reprint). – 182 p.

qozog‘istonlik olimlar, B.A. Zhubanov va A.K. Mynbayevalar[2] ham tadqiqot muammosiga aloqador ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Oliy ta’limda ingliz tili darslarida talabalarning akademik faoliyatini takomillashtirish, ta’lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish hamda chet tili o‘qitish metodikasini rivojlantirish masalalari yurtimiz olimlari J. Jalolov, T.K. Sattorov, L.T. Axmedova, A. Soynazarov, M.X. Gulyamova[3] tomonidan keng o‘rganilgan. Ingliz tili darslarida kollaborativ yondashuvni tadbiq etish, hamkorlik strategiyalari va baholash mezonlarini ishlab chiqish bo‘yicha K.Sh. Muradkasimova, N.X. Kushieva, D.G‘. Ashurova, N.G. Dilova[4] kabi olimlar tadqiqotlarida yoritilgan. Ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish va talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari B.X. Xodjayev va N.A. Muslimovlar[5]ning ilmiy ishlarida asoslangan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli platformalar asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘nalishida A.A. Abduqodirov va R.J. Ishmuhamedovlar[6]ning salmoqli tadqiqotlari e’tiborga loyiq.

Hamkorlikda o‘qitish va kollaborativ ta’lim metodikasi bo‘yicha taniqli olimlardan U.B. Qayumova, G.X. Boqiyeva va Q.Q. Inoqov[7] ilmiy ishlarida talabalarning akademik faolligini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan.

---

[2] Выготский Л.С. Психология развития. Избранные работы. – М.: Юрайт, 2015. – 281 с.; Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. – М.: Академия, 2003. – 240 с.; Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 2005. – 256 с.; Волков И.П. Педагогические технологии. – М.: Академия, 2002. – 200 с.; Асмолов А.Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. – М.: Смысл, 2010. – 416 с.; Жубанов Б.А. Казахская филология: избранные труды. – Алматы: Наука, 2008. – 320 с.; Мынбаева А.К. Инновационные процессы в образовании. – Алматы: Қазақ университеті, 2012. – 210 с.

[3] Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – T., 2012. – 430 b.; Сатторов Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Т., 2000. – 32 с.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 200 с.; Soynazarov K. Experimental and Theoretical Basis for Language Experience Transfer. – Tashkent, 2022. – 180 p.; Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. – 20 b.

[4]Мурадкасимова К.Ш. Бўлажак мутахассисларнинг баҳолаш компетенциясини такомиллаштириш концепцияси: 13.00.02 – Таълим ва тарбия назарияси ва методикаси (инглиз тили) ихтисослиги бўйича педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, 2022. – 200 б.; Kushiyeva N. X. Uzluksiz ta’lim tizimida ingliz tilini klasterli yondashuv asosida o‘qitish modeli: 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2023. – 370 b.; Dilova N. G. Boshlang‘ich ta'lim jarayonida o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi (pedagogika fanlari) ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 2022. – 156 b

[5] Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: darslik. – T.: Sano-standart, 2017. – 416 b.; Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish: monografiya. – T.: Fan, 2004. – 127 b.

[6] Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 236 b.; Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008. – 180 b.

[7] Qayumova U.B. Chet tillarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv. – T.: Fan, 2019. – 215 b.; Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. – Москва: МГЛУ, 2012. – 120 с.; Inoqov Q.Q. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va o‘quv jarayonini samarali tashkil etish. – T.: Ta’lim, 2021. – 178 b.

Tahlillar ko‘rsatadiki, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda kollaborativ o‘qitishning nazariy asoslari, hamkorlikda o‘rganish texnologiyalari hamda talabalar faolligini oshirish masalalari keng yoritilgan bo‘lsa-da, oliy ta’limda ingliz tili o‘qitish metodikasi darslarida kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishning yaxlit metodik tizimi, uning mazmuni, shakli, vositalari, texnologik ta’minoti hamda samaradorligini baholash mezonlari maxsus tadqiqot predmeti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab, ushbu muammoning ilmiy yechimini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Navoiy davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan rejasining “Ingliz tili ta’limi samaradorligini kollaborativ o‘qitish asosida takomillashtirish metodikasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’limda ingliz tili darslarida kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta’lim ingliz tili darslarida kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishda hamkorlik, refleksiv, integratsiya va transformatsiya komponentlarining mazmun-mohiyatini aniqlashtirish;

ingliz tili darslarida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishning metodik imkoniyatlarini kollaborativ mashqlar tizimi asosida takomillashtirish;

talabalar akademik faoliyatini monitoring qilish, baholash va boshqarish jarayonlarini sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan raqamli platforma vositasida takomillashtirish;

kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishning takomillashtirilgan metodik modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabalarining akademik faoliyatini kollaborativ o‘qitish asosida tashkil etish jarayoni belgilanib, tadqiqotga Navoiy davlat universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti va Samarqand davlat chet tillar institutlaridan jami 360 nafar talaba jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini ingliz tili darslarida kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini samarali tashkil etishning shakl, metod, vositalari va texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzusiga bevosita daxldor bo‘lgan metodik, pedagogik va psixologik yo‘nalishlardagi zamonaviy ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, anketa-so‘rovnoma, kuzatish, suhbat, pedagogik loyihalashtirish hamda olingan natijalarni matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tili darslarida kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishning didaktik imkoniyati hamkorlik, refleksiya, integratsiya va transformatsiya komponentlarini integratsiyalash orqali o‘zaro funksional bog‘liqligi pedagogik tizim sifatidagi ishlash mexanizmi aniqlashtirilgan;

ingliz tili darslarida akademik faoliyatni tashkil etishda kollaborativ o‘qitish mazmuni ijodiy yondashuv asosida o‘quv jarayoniga SyncLoop Collaboration, CloudConstruct Method, DualPath Inquiry va CrossVision Rotation metodlarini integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

oliy ta’limda ingliz tili darslarida kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishning integrativ modeli baholash va boshqarish jarayonlari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda jamoaviy qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish “Collaborative Learning Development” (CLD) platformasi hamda “Activity Analysis” (AA) va “Collaborative Analysis Tool” (ColAT) malakalariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etish samaradorligi maqsadli, mazmunli, texnologik-metodik va baholash komponentlarini integratsiyalash hamda o‘quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, monitoring qilish bosqichlari o‘rtasidagi uzviylik asosida takilif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kollaborativ o‘qitish jarayonida talabalarning akademik faoliyatni tashkil etishning mazmuni aniqlangan, shakl, metod va vositalar takomillashtirilgan;

talabalarning akademik faoliyatini tashkil etishga oid ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida 60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) bakalavr ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabalari uchun “Collaborative Teaching in Higher Education” nomli metodik qo‘llanma yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan;

kollaborativ o‘qitish jarayonida talabalarning akademik faoliyatini tashkil etishning samaradorlik darajasini baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

talabalarning akademik faoliyatini tashkil etishning “CLD” elektron ta’lim platformasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plamlari, OAK e’tirof etgan mahalliy va xalqaro jurnallarda chop etilgan maqolalalar, metodik qo‘llanmalar, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kollaborativ o‘qitish jarayonida talabalarning akademik faoliyatini tashkil etishning didaktik imkoniyati aniqlanganligi, uning samaradorligini belgilovchi omillar ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilinganligi, muammoning yechimi bo‘yicha taklif qilingan texnologiyalar ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan metod hamda vositalar, yaratilgan o‘quv-metodik qo‘llanma, o‘quv-usuliy ko‘rsatmalardan oliy ta’lim tizimida o‘quv tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish metodikasi fanini kollaborativ yondashuv asosida talabalarning akademik faoliyatini tashkil etish mexanizmlari bo‘yicha olingan natijalar, ilgari

surilgan ilmiy-nazariy xulosalar va metodik tavsiyalar oliy ta’lim muassasalari o‘quv-usuliy ta’minotini takomillashtirish uchun xizmat qiladi. Taklif etilgan metodikadan pedagog kadrlarning mahoratini oshirish markazlarining malaka oshirish kurslarida yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’limda kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz tili darslarida kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishning didaktik imkoniyati hamkorlik, refleksiya, integratsiya va transformatsiya komponentlarini integratsiyalash orqali o‘zaro funksional bog‘liqligi pedagogik tizim sifatidagi ishlashga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2023-yillarga mo‘ljallangan davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida amalga oshirilgan AM-FZ-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 25-fevraldagi № 04/1-1116-son ma’lumotnomasi). Natijada, kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etish mazmuni takomillashtirilgan;

ingliz tili darslarida akademik faoliyatni tashkil etishda kollaborativ o‘qitish mazmuni ijodiy yondashuv asosida o‘quv jarayoniga SyncLoop Collaboration, CloudConstruct Method, DualPath Inquiry va CrossVision Rotation metodlarini integratsiyalashga oid ilmiy-metodik tavsiyalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022–2025-yillarda amalga oshirilgan Erasmus+ International Credit Mobility Key Action 1 – Mobility for learners and staff – Higher education student and staff mobility dasturi doirasida Italiyaning Ca’ Foscari universiteti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan xalqaro loyiha faoliyatida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 25-fevraldagi № 04/1-11178-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalar akademik faoliyatini tashkil etishda o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishga qaratilgan ilmiy-metodik imkoniyati kengaygan;

oliy ta’limda ingliz tili darslarida kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishning integrativ modeli baholash va boshqarish jarayonlari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda jamoaviy qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish “Collaborative Learning Development” (CLD) platformasi hamda “Activity Analysis” (AA) va “Collaborative Analysis Tool” (ColAT) malakalariga ustuvorlik berishga doir tadqiqot natijalaridan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi faoliyatida foydalanilgan (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 23-dekabrdagi 02/01-01-617-son ma’lumotnomasi). Natijada, xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo‘nalishida o‘tiladigan “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” fanining o‘quv dasturi takomillashtirilgan;

kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etish samaradorligi maqsadli, mazmunli, texnologik-metodik va baholash komponentlarini integratsiyalash hamda o‘quv jarayonini rejalashtirish, tashkil

etish, monitoring qilish bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikka oid ilmiy xulosalar “Speech Etiquette (Educational Manual-Part I)” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 17-avgustdagi 6949-496a-8326-5170-2888-0659-9237-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalar akademik faoliyatini tashkil etish jarayonlarining maqsad, mazmun, texnologik-metodik va baholash komponentlari o‘zaro uyg‘unlashtirilib, o‘quv jarayonini tizimli boshqarish, talabalarning akademik faolligini oshirish va ta’lim natijadorligini ta’minlash imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro hamda 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy-metodik ish chop ettirilgan bo‘lib, jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta uslubiy qo‘llanma, 1 ta elektron o‘quv platforma, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 14 ta ilmiy maqola, shu jumladan, 9 tasi respublika va 5 tasi xalqaro ilmiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, dissertatsiyaning asosiy hajmi 139 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan. Shuningdek, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi hamda dissertatsiya tuzilishi yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ingliz tili darslarida kollaborativ yondashuv asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda kollaborativ o‘qitishning metodologik va nazariy asoslari, uning talabalar akademik faoliyatini rivojlantirishdagi o‘rni hamda ingliz tili ta’limida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kollaborativ o‘qitish nazariyasiga oid ilmiy manbalar tahlili ushbu pedagogic tizimning talabalarning birgalikda bilim yaratishi, muammolarni hamkorlikda hal qilishi va akademik faolligini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Shuningdek, P. Dillenbourg kollaborativ o‘qitishni kichik guruhlarda muloqot, tushuntirish va muammo yechish orqali bilim yaratishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-kognitiv jarayon sifatida izohlaydi. M. Laal bu tizim talabalarning akademik, ijtimoiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishini ta’kidlaydi. D.V. Jonson va R. Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyada ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, individual mas’uliyat, qo‘llab-quvvatlovchi muloqot va guruhiy


refleksiya samarali hamkorlikning asosiy tamoyillari sifatida asoslangan. L.S. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi esa, bilim va ko‘nikmalarning ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanishini izohlaydi. Ushbu yondashuvlar tahlili asosida kollaborativ o‘qitishning didaktik imkoniyatlari hamkorlik, refleksiya, integratsiya va transformatsiya komponentlari orqali namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Oliy ta’limda kollaborativ o‘qitishning amaliy holatini tahlil qilish jarayonida aniqlangan muammolar mazmuniga ko‘ra tizimlashtirildi. Ular o‘qitish jarayonining tashkiliy, kommunikativ, baholash va institutsional jihatlarini qamrab oladi (1-rasmga qarang):



“1-rasm.” Oliy ta’limda kollaborativ o‘qitishni tashkil etishda uchraydigan asosiy muammolar

Aniqlangan muammolar kollaborativ o‘qitishni metodik jihatdan takomillashtirish zaruratini asoslaydi. Bu zarurat, avvalo, talabalar akademik faoliyatini tashkil etishning metodik mexanizmini aniqlashtirishni taqozo etadi. Ushbu mexanizm quyidagi bosqichlarni qamrab oladi (2-rasmga qarang):



“2-rasm.” Kollaborativ o‘qitishning metodik mexanizmi

Mazkur metodik mexanizm kollaborativ o‘qitish jarayonini izchil tashkil etish hamda talabalar akademik faoliyatining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kollaborativ o‘qitish talabalarning kichik guruhlarga bo‘linib, umumiy maqsad sari birgalikda ishlashiga asoslangan interaktiv ta’lim jarayoni bo‘lib, bunda asosiy e’tibor ustoz ma’ruzasidan ko‘ra, o‘quvchilarning o‘zaro fikr almashishi va muammolarni birgalikda hal qilishiga qaratilganligi bilan ahamiyatli sanaladi. Talabalar akademik faoliyatiga oid ilmiy yondashuvlar tahlili uning ko‘pqirrali pedagogik hodisa ekanligini ko‘rsatdi. J.A.Vankovskiy akademik faoliyatni talabaning bilimlarni o‘zlashtirishi bilan birga o‘ziga ishonchi va mustaqil o‘rganish qobiliyati bilan bog‘lasa, S.Cassidy va P. Eachus uning obyektiv hamda subyektiv ko‘rsatkichlar uyg‘unligida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Quyidagi jadvalda jahon va mahalliy tajriba asosiy mezonlar bo‘yicha qiyosiy tahlil qilinib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari ilmiy asosda yoritilgan (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Kollaborativ o‘qitish asosida o‘quv jarayonini tashkil etish tajribasining qiyosiy tahlili

Tahlil mezoni	Jahon tajribasi	Mahalliy (O‘zbekiston) tajribasi	Ilmiy tahliliy xulosa
Kollaborativ o‘qitishning konseptual asoslari	Kollaborativ o‘qitish ijtimoiy konstruktivizm, sotsiokultural nazariya va CSCL konsepsiyalari asosida tizimli model sifatida shakllangan	Kollaborativ yondashuv ko‘proq metodik tavsiyalar va alohida pedagogik texnologiyalar darajasida talqin qilinadi	Jahon tajribasida kollaborativ o‘qitish konseptual darajada mustahkamlangan bo‘lsa, mahalliy amaliyotda u hali yaxlit pedagogik model sifatida tizimlashtirilmagan
Raqamli kollaborativ muhit (CSCL)	CSCL ijtimoiy-kognitiv dizayn asosida qurilib, texnologiya vosita sifatida qo‘llanadi	Raqamli platformalar faol ishlatiladi, biroq pedagogik dizayn, ko‘pincha, texnologiyadan oldinda emas	Muammo texnologiyada emas, balki pedagogik dizayn va metodik integratsiyada ekanligi aniqlanadi
Baholash tizimi	Jamoaviy faoliyat, jarayon va natijani qamrab oluvchi diagnostik va formatif baholash keng qo‘llaniladi	Baholash, asosan, yakuniy mahsulot yoki loyiha natijasiga qaratilgan	Mahalliy tajribada jarayonni baholash mexanizmlarini rivojlantirish zarur
O‘qituvchining roli	O‘qituvchi fasilitator va dizayner sifatida faoliyat yuritadi	O‘qituvchi roli ko‘pincha bilim beruvchi va nazoratchi sifatida saqlanib qolgan	Kollaborativ o‘qitishni rivojlantirish o‘qituvchining professional rolini qayta belgilashni talab etadi
Institutsional qo‘llab-quvvatlash	Kollaborativ o‘qitish davlat siyosati, dasturlar va strategiyalar bilan qo‘llab-quvvatlanadi	Alohida loyihalar va tashabbuslar mavjud, biroq yagona strategiya yo‘q	Kollaborativ o‘qitishni tizimli joriy etish uchun institutsional mexanizmlar zarur

Tahlil natijasida kollaborativ o‘qitishni oliy ta’lim jarayoniga integratsiyalash, talabalar akademik faoliyatini samarali tashkil etish, jarayon va natijalarni

baholash mexanizmlarini takomillashtirish hamda zamonaviy raqamli ta’lim muhitiga mos metodik model ishlab chiqish zarurati aniqlandi.

Tadqiqot davomida 6011800 – “Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)” ta’lim yo‘nalishi “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” fanining o‘quv yuklamasi tahlilga tortildi va uchala oliy ta’lim muassasasida ham fan bo‘yicha jami 120 soatlik o‘quv yuklamasi belgilangan bo‘lib, amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarining kollaborativ faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari o‘rganildi.

2-jadval

Tajriba maydonlarida o‘quv yuklamasining taqsimlanishi

№	Tajriba-sinov maydoni	Ma’ruza	Amaliy	Seminar	Auditoriya	Mustaqil ta’lim	Jami
1	**Navoiy davlat universiteti**	20	20	20	60	60	120
2	**Buxoro davlat pedagogika instituti**	22	26	0	48	72	120
3	**Samarqand davlat chet tillar instituti**	30	30	0	60	60	120

Fan dasturi va sillabus tahlili amaliy mashg‘ulotlar hamda mustaqil ta’lim faoliyati tarkibida talabalar akademik faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi resurslar mavjudligini ko‘rsatdi, ammo mazkur faoliyat turlarining o‘zaro integratsiyasi, hamkorlikka asoslangan topshiriqlar tizimi va jarayonli baholash mexanizmlarining yetarli darajada metodik ta’minlanmaganligi aniqlandi. Bu esa o‘quv jarayonining amaldagi holatini chuqurroq tahlil qilish hamda mavjud metodik muammolarni aniqlash zaruratini yuzaga keltirdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz tili o‘qitish metodikasi darslarida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishda kollaborativ o‘qitishning metodik ta’minoti”** deb nomlanib, unda kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishning metodik modeli, uning tarkibiy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari hamda amaliy mexanizmlari tahlilga tortildi. Shuningdek, talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishga xizmat qiluvchi metodlar tizimi, raqamli ta’lim muhitidan foydalanish imkoniyatlari va akademik faoliyatni monitoring qilish hamda baholash mexanizmlari asoslandi.

Tadqiqot davomida aniqlangan qator metodik muammolarni bartaraf etish maqsadida kollaborativ mashqlar tizimini ishlab chiqishda zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda tavsiya etilgan kollaborativ o‘qitish yondashuvlari tahlil qilindi. Xususan, E.F. Barkley, C.H. Major va K.P. Cross tomonidan asoslangan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish, talabalarni faol ishtirokka jalb etish hamda mazmunli o‘quv faoliyatni shakllantirish tamoyillari ingliz tili o‘qitish metodikasi fani sharoitiga moslashtirildi va ushbu konsepsiyalar asosida takomillashtirilgan SyncLoop Collaboration, CloudConstruct Method, DualPath Inquiry va CrossVision Rotation metodlari ishlab chiqildi hamda o‘quv jarayoniga joriy etildi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Kollaborativ mashqlar tizimida qo‘llaniladigan metodlarning ishlash mexanizmi

Metod	Ishlash mexanizmi	Akademik natija
SyncLoop Collaboration *(Bosqichma-bosqich uzviy hamkorlik)*	Akademik muammo guruhlar o‘rtasida ketma-ket uzatiladi. 1-guruh muammoni aniqlaydi, 2-guruh sabablarini tahlil qiladi, 3-guruh yechim variantlarini ishlab chiqadi, 4-guruh eng maqbul yechimni tanlab, umumiy xulosani shakllantiradi	Akademik izchillik, jamoaviy mas’uliyat, muammoli tahlil, reflektiv fikrlash
CloudConstruct Method *(Integrativ hamkorlikda bilim olish)*	Har bir talaba mavzu bo‘yicha individual fikr, dalil yoki tajriba bilan ishtirok etadi. Keyinchalik guruh a’zolari ushbu fikrlarni muhokama qiladi, taqqoslaydi, kategoriyalarga ajratadi va yagona akademik bilim konstruksiyasiga birlashtiradi	Akademik muloqot, tanqidiy fikrlash, bilim integratsiyasi, hamkorlikda bilim yaratish
DualPath Inquiry *(Parallel tahliliy izlanish)*	Talabalar ikki guruhga bo‘linib, bir xil akademik muammoni ikki turli yondashuv asosida parallel ravishda tahlil qiladi. Masalan, bir guruh muammo va tosiqlarini, ikkinchi guruh yechim va afzalliklarini tahlil qiladi. Yakunda natijalar taqqoslanib, umumiy integrativ xulosa ishlab chiqiladi	Alternativ fikrlash, akademik argumentatsiya, tanqidiy tahlil, qaror qabul qilish
CrossVision Rotation *(Turli qarashlar tahlili)*	Talabalar akademik muammoni turli ijtimoiy yoki kasbiy pozitsiyalardan tahlil qiladi (talaba, o‘qituvchi, ota-ona, ish beruvchi, tadqiqotchi va boshqalar). Rotatsiya davomida guruhlar pozitsiyalarni almashtirib, muammoni turli rakurslardan qayta ko‘rib chiqadi va yakunda umumiy qarorga keladi.	Ko‘p tomonlama fikrlash, empatik tahlil, strategik qaror qabul qilish, reflektiv baholash

Taklif etilgan metodlar talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini faollashtirish, reflektiv tahlilni rivojlantirish va akademik mas’uliyatni kuchaytirishga xizmat qildi. Ushbu metodlarni amaliyotga joriy etish jarayonida talabalar akademik faoliyatidagi o‘zgarishlarni aniqlash hamda kollaborativ faoliyat samaradorligini baholash zarurati yuzaga keldi. Mazkur jarayonda kollaborativ faoliyatini kuzatish va tahlil qilishga yo‘naltirilgan yondashuvlar, xususan, N. Avouris, V. Komis, M. Margaritis va G. Fiotakis tomonidan taklif etilgan Activity Analysis (AA) hamda Collaborative Analysis Tool (ColAT) yondashuvlari metodik asos sifatida o‘rganildi va shu asosda baholash mezonlari ishlab chiqilib, ular CLD–AA–ColAT texnologiyasi doirasida tizimlashtirildi.Talabalar akademik faoliyatini monitoring qilish va baholash jarayonlarini raqamlashtirish, nafaqat, kollaborativ faoliyatni boshqarish balki o‘quv jarayonini individual xususiyatlarga moslashtirish maqsadida sun’iy intellekt imkoniyatlari integratsiyalangan “Collaborative Learning Development” (CLD) elektron platformasi ishlab chiqildi. Platformada o‘qituvchi tomonidan mashg‘ulot mavzusi va topshiriq darajasi belgilangach, sun’iy intellekt asosida mos kollaborativ metod va topshiriq turini tavsiya qilish, talabalarni guruhlarga shakllantirish, funksional rollarni taqsimlash hamda faoliyat ketma-ketligini boshqarish imkoniyatlari yaratildi. (4-jadvalga qarang)

4-jadval

Kollaborativ topshiriqlarni baholash mezonlari


Baholash komponenti	Umumiy ulushi	Mezonlar	Ichki ulushi	A’lo (90–100)	Yaxshi (71–89)	Qoniqarli (60–70)	Qoniqarsiz (0–59)
Individual akademik faoliyat	**40%**	Ichki motivatsiya va topshiriqdagi faollik	10%	Faol, tashabbuskor	Faol	Epizodik ishtirok	Passiv
		Individual hissadorlik	15%	Katta hissa qo‘shadi	Yetarli hissador-lik mavjud	Kam ishtirok etadi	Ishtirok etmaydi
		Tanqidiy-tahliliy fikrlash (AA asosida)	15%	Chuqur va asoslangan tahlil	Qisman tahlil	Yuzaki tahlil	Tahlil mavjud emas
Jamoaviy faoliyat natijasi	**30%**	Jamoaviy ish sifati	15%	Mukammal darajada	Yaxshi darajada	O‘rtacha darajada	Past darajada
		Ijodkorlik va metodik yechim sifati	15%	Innovatsion va asoslangan	Metodik g‘oya mavjud	Oddiy yondashuv	Yechim mavjud emas
Kollaborativ interaksiya	**30%**	Hamkorlik sifati	10%	Faol va samarali muloqot	Yetarli muloqot	Yuzaki muloqot	Muloqot mavjud emas
		Feedback va reflektiv tahlil (ColAT asosida)	10%	Chuqur va asoslangan fikr bildiradi	Fikr bildiradi	Yuzaki fikr bildiradi	Fikr bildirmaydi
		Topshiriqni o‘z vaqtida bajarish	10%	To‘liq va o‘z vaqtida	Kichik kechikish bilan	Sezilarli kechikish bilan	Bajarilmagan

Talabalar akademik faoliyatini monitoring qilish va baholash jarayonlarini raqamlashtirish, nafaqat, kollaborativ faoliyatni boshqarish balki o‘quv jarayonini individual xususiyatlarga moslashtirish maqsadida sun’iy intellekt imkoniyatlari integratsiyalangan “Collaborative Learning Development” (CLD) elektron platformasi ishlab chiqildi. Platformada o‘qituvchi tomonidan mashg‘ulot mavzusi va topshiriq darajasi belgilangach, sun’iy intellekt asosida mos kollaborativ metod va topshiriq turini tavsiya qilish, talabalarni guruhlarga shakllantirish, funksional rollarni taqsimlash hamda faoliyat ketma-ketligini boshqarish imkoniyatlari yaratildi.

Platforma, shuningdek, talabalar individual va guruhiy faolligini monitoring qilish, mustaqil ta’lim topshiriqlarini boshqarish, fikr-mulohaza va reflektiv faoliyatni tashkil etish, individual hissa, jamoaviy natija va kollaborativ interaksiyani belgilangan mezonlar asosida kompleks baholash hamda akademik faoliyatida qiyinchilik kuzatilayotgan talabalarni aniqlash funksiyalarini qamrab oladi. CLD platformasida AA (Activity Analysis) va ColAT (Collaboration Analysis Tool) integratsiyasi orqali individual faoliyat, guruhiy hamkorlik, o‘zaro muloqot, fikr-mulohaza va reflektiv jarayonlarni tahlil qilish imkoniyati ta’minlandi (3- va 4-rasmlarga qarang).



“3-rasm.” Collaborative Learning Development (CLD) platformasining bosh sahifasi (kirish interfeysi) cld.com.uz



“4-rasm.” CLD platformasining talaba interfeysi

CLD platformasining amaliy joriy etilishini ta’minlash maqsadida unga tezkor kirish imkonini beruvchi QR kod ishlab chiqildi. Mazkur vosita platformaning funksional imkoniyatlaridan foydalanish, kollaborativ topshiriqlarni boshqarish va akademik faoliyat natijalarini monitoring qilishni soddalashtiradi (5-rasmga qarang):

“5-rasm.” Platforma ilovasiga o‘tish uchun QR kod

CLD platformasining funksional imkoniyatlari kollaborativ o‘qitish jarayonini tashkil etish, monitoring qilish va baholash bosqichlarini yagona raqamli muhitda integratsiyalash imkonini berdi. Natijada talabalar akademik


faoliyatini boshqarish, monitoring qilish va tahlil etish samaradorligi oshirildi (5-jadvalga qarang):

5-jadval

Raqamli platformaning funksional imkoniyatlari va ularning pedagogik vazifalari

№	Funksional blok	Platformaning asosiy funksiyasi	Metodik vazifasi
1	**Collaborative Method Engine**	SyncLoop Collaboration, CloudConstruct Method, DualPath Inquiry va CrossVision Rotation metodlarini tanlash va qo‘llash	Talabalarning akademik faoliyatini mualliflik kollaborativ metodlari asosida tashkil etish
2	**AI Method Recommendation**	Mashg‘ulot mavzusi va mazmuniga muvofiq kollaborativ metodni tavsiya qilish	O‘qituvchiga o‘quv mazmuniga mos metodni tanlashda metodik yordam ko‘rsatish
3	**Adaptive Role Assignment**	Talabalarning faoliyati va guruhdagi ishtirokini hisobga olgan holda rollarni taqsimlash	Individual mas’uliyatni kuchaytirish hamda guruh a’zolarining faol ishtirokini ta’minlash
4	**Learning Control & Reflection**	Kollaborativ faoliyat bosqichlarini nazorat qilish va talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilish jarayonini tashkil etish	O‘quv faoliyatining izchilligini ta’minlash va talabalarning o‘z faoliyatini anglashini rivojlantirish
5	**Independent Learning Module**	Mustaqil ta’lim topshiriqlarini tashkil etish, bajarilishini kuzatish va natijalarini qayd etish	Mustaqil va kollaborativ akademik faoliyatni o‘zaro uyg‘unlashtirish
6	**Integrated Assessment Engine**	Individual akademik faoliyat, jamoaviy ish natijasi va kollaborativ o‘zaro ta’sirni belgilangan mezonlar asosida baholash	Individual hissa, jamoaviy natija va hamkorlikdagi faoliyatni kompleks baholash
7	**Early Warning System**	Faollikning pasayishi, bajarilmagan topshiriqlar, kech topshirish, yetarli darajada amalga oshirilmagan o‘z faoliyatini tahlil qilish va hamkorlikdagi muammolarni aniqlash	O‘quv faoliyatida qiyinchilikka duch kelayotgan talabalarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga pedagogik ko‘mak ko‘rsatish
8	**Student Progress Dashboard**	Talabaning individual, jamoaviy va kollaborativ faoliyati natijalarini aks ettirish	Talabaga o‘z akademik rivojlanishini kuzatish va o‘quv natijalarini tahlil qilish imkonini berish
9	**Teacher Analytics Dashboard**	Talabalarning faolligi, topshiriqlarni bajarishi, ishtiroki va boshqa asosiy ko‘rsatkichlarini monitoring qilish	O‘qituvchiga talabalarning akademik faoliyatini muntazam kuzatish va tegishli pedagogik qarorlar qabul qilish imkonini berish
10	**Collaborative Portfolio**	Talabaning bajarilgan topshiriqlari, natijalari, fikr-mulohazalari va rivojlanish dinamikasini jamlash	Talabaning akademik faoliyati va rivojlanish natijalarini tizimli ravishda aks ettirish
11	**Reporting & Export**	O‘quv faoliyati va baholash natijalarini **Word, PDF va Excel** formatlarida eksport qilish hamda elektron hisobotlarni shakllantirish	Ta’lim jarayoni va tajriba-sinov natijalarini saqlash, tahlil qilish, hujjatlashtirish va ilmiy-amaliy foydalanish uchun qulay shaklda taqdim etish

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan kollaborativ mashqlar tizimi, takomillashtirilgan metodlar, baholash mezonlari hamda CLD platformasining funksional imkoniyatlari o‘zaro integratsiyalashgan holda umumlashtirildi. Mazkur elementlarning o‘zaro bog‘liqligi va funksional vazifalari tahlil qilinib, ular yagona metodik tizim sifatida loyihalashtirildi. Natijada kollaborativ o‘qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etishning metodik modeli ishlab chiqildi.



"6-rasm." Kollaborativ o'qitish asosida talabalar akademik faoliyatini tashkil etish modeli

Mazkur model talabalarning akademik faoliyatini maqsadli tashkil etish, hamkorlikdagi o‘quv faoliyatini boshqarish, reflektiv faoliyatni rivojlantirish, o‘quv natijalarini monitoring qilish va baholash jarayonlarini yagona metodik tizim asosida amalga oshirish imkonini beradi.

